


73.00
519

J.I. SAMANDAROV, O.E. MAMARAJABOV,
A.I. ABDULLAJONOV

AXBOROT XAVFSIZLIGI



CH0000042185

13.1
519

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

SAMANDAROV JAVLON ISKANDAROVICH
MAMARAJABOV ODIL ELMURZAYEVICH
ABDULLAJONOV ARABBOY IBROXIM O'G'LI

13/11/25

«AXBOROT XAVFSIZLIGI»

Fanidan o'quv qo'llanma

NIZOMIY NOMIDAGI
TDPU
AXBOROT-RESURS
MARKAZI



936079

Toshkent 2025

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishi talabalariga o'quv rejasidagi "Axborot xavfsizligi" fanini o'qitishda va fanlarni alohida mavzularini batafsil o'rganishda ishlatilishiga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: D.K. Sharipov

Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi TATU
Kompyuter injineri
fakulteti "Multimedia
texnologiyalari" kafedras
dotsenti, (PhD)

Z.R.Muxammadxo'jayeva Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat
pedagogoika universiteti
Axborot texnologiyalari
kafedras dotsenti (PhD)

Mundarija

KIRISH.....	4
1-MAVZU: AXBOROTNI HIMOYALASH VA AXBOROT XAVFSIZLIGI	5
2-MAVZU: AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING TASHKIL ETILISHI.	14
3-MAVZU: AXBOROT XAVFSIZLIGINING ROLI VA O'RNI.....	30
4-MAVZU. AXBOROT XAVFSIZLIGI MODELLARI	39
5-MAVZU. AXBOROTLARNI STENOGRAFIK HIMOYALASH	49
6-MAVZU. KRIPTOGRAFIK USULLAR FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	57
7-MAVZU. AXBOROTLARNI KRIPTOGRAFIYALI HIMOYALASH TAMOIYILLARI.....	66
8-MAVZU. KRIPTOGRAFIK USULLAR FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	76
9-MAVZU: ASOSIY TUSHUNCHALAR: KRIPTOLOGIYA, KRIPTOGRAFIYA, KRIPTOANALIZ, SHIFR, KRIPTOGRAMMA, OCHIQ MATN, YOPIQ MATN, KRIPTOTIZIM VA KRIPTOGRAFIK ALGORITM.....	86
10-MAVZU: TARMOQDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA HIMOYALASH USULLARI.	95
AXBOROT XAVFSIZLIGI ASOSLARI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI:	112
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	115

KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda, Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz...

SH.M.Mirziyoyev

Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo'lgan ma'lumotlar qat'iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko'rinishiga ega bo'lib, ichki va tashqi bozorda unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo'nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfidentsial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda.

«Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi.

Axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko'rinishda yo'qotishda (o'g'irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko'riladigan zararining oldini olishni ta'minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko'ra tashkil etilishi zarur. Yuqori darajada axborotni muhofaza qilishni kafolatlash uchun muntazam ravishda murakkab ilmiy-texnik vazifalarni hal etish va himoya vositalarini takomillashtirish talab etiladi.